ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 5(9) 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

Mirzobobur Bahodirovich Qambarov
Buxoro davlat universitetiU mustaqil izlanuvchisi

PEDAGOGIK TIZIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING HUQUQIY MASALALARI

Abstract. *How important it is to use best practices and technologies to organize the educational process now. It is a very urgent task to make young people interested in reading, to instill spiritual immunity in their minds, and to solve educational issues by fully forming life skills in them. The article discusses the need to implement educational activities in the pedagogical system.*

Key words: *life skills, issue, education, activity, process, environment, youngs, source, law, duty.*

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

Annotatsiya. *Hozirda ta'lim jarayonini tashkil etish uchun ilg'or tajriba va texnologiyalarni qo'llash qanchalik muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni mutolaaga qiziqtirish, ular ongiga ma'naviy immunitetni singdirish, hayotiy ko'nikmalarni ularda to'laqonli shakllantirish orqali tarbiyaviy masalalarni hal etish o'ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqolada pedagogik tizimda tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish zarurati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *hayotiy ko'nikmalar, masala, tarbiya, faoliyat, jarayon, muhit, yoshlar, manba, huquq, burch.*

LEGAL ISSUES OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN THE PEDAGOGICAL SYSTEM

Аннотация. *Насколько важно сейчас использовать лучшие практики и технологии для организации образовательного процесса. Очень актуальная задача — заинтересовать молодежь чтением, воспитать в ее сознании духовный иммунитет, решить образовательные вопросы путем всестороннего формирования у них жизненных навыков. В статье рассматривается необходимость реализации образовательной деятельности в педагогической системе.*

Ключевые слова: *жизненные навыки, вопрос, образование, деятельность, процесс, среда, молодежь, источник, право, обязанность.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda yashaydigan yoshlar ta'lim va tarbiya olar ekan, ularning aqliy rivojlanishini, tafakkurini yangilash, o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni kiritish orqali ularda erkin hamda mustaqil fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirish o‘ta muhim vazifa sanaladi. Chunki hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Zero, olam, insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlar kundan kun o‘zgarmoqdaki, bunda tafakkur va olamni tushunishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish yuz bermoqda.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur 14 yoshida taxtni egallab, mamlakatni boshqarishga majbur bo'lgan. Abu Ali ibn Sino qomusiy bilimlarni ham mutolla asosida o'rganib, ilm-fan sohasida dovruq qozongan. Buyuk sarkarda Amir Temur o'z donoligi va ilmi bilan adolatli davlat qutishga erishgan. Alisher Navoiyning g'azal mulkining sultoniga aylanishida ham mutolaa va go'zal tarbiya sabab bo'lgan. Ularning bunday maqomga erishishlarida oilaviy muhitda tarbiyalanganlik, ilmu ma'rifatga qiziqish, mutolaaga bo‘lgan muhabbat beqiyos rol o‘ynagan. Ilm-ma'rifat orqali tarbiyalanuvchida ijobiy va salbiy xislatlarni farqlash, ilm olish nimaligini idrok etib uning qadriga yetish ko'nikmalari paydo bo'lishining bosh sababi ham shunda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

“Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Zarbulmasal” singari mumtoz asarlar zamirida huquqiy masalalar, an'anaviy axloqiy tarbiya tajribasi o'z aksini topadi. Ko'pgina mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining ma'naviy meroslari kishiga o‘z-o‘zini tanqidiy tahlil etishga yo'naltiradi.

Tarbiyaviy faoliyat masalalari mamlakatimizda qonun va qonun osti hujjatlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, bu hujjatlarda keng jamoatchilik uchun tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishning turli mexanizmlari keltirib o'tilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qaroriga muvofiq, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi shakllantirildi. Hujjatda oliy ta'lim

tashkilotlarining pedagogik bo‘lmagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalari uchun ixtiyoriy ravishda o‘zlashtiriladigan pedagogik tayyorgarlik modullarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish, tarbiyaviy faoliyat bilan shug’ullanuvchi “O‘zbekkino” Milliy agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ta’lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka to‘g‘ri yetkazish maqsadida o‘qituvchilik kasbini ulug‘lovchi videoroliklar, ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlar, badiiy va hujjatli filmlarni ishlab chiqish, televideniye orqali doimiy namoyish qilsin hamda ijtimoiy reklama sifatida ularni televideniye va radiokanallarda joylashtirish vazifasi berildi.

Natijalar.

Ana shunday tarixiy asosga ega mamlakatimizda ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat tajribasi kundan kunga boyib, sayqallanib borishi lozim. Bunda tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish muhiti qandaydir vaqt, qandaydir makon tanlamasligi lozim. Shuningdek, tarbiyaviy faoliyat masalalari ta’lim tizimining turli bosqichlarida, turli shakllarda amalga oshirilmog’i lozim.

Shuningdek, tarbiyaviy faoliyat masalalari kishi ongining ma’naviy tashkillashtirishi uchun eng muhim ma’lumotlar bera olish, shaxsning estetik dunyoqarashini shakllantira oladigan hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan, ma’naviy tarbiya bera oladigan jarayonni hozirlash muhitini sifatli tashkil etish asosida qurilishi lozim.

“Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish” ustuvor vazifalar etib belgilandi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga binoan, Yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularni turli yot g‘oya va tahdidlardan asrash, o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma’rifiy va madaniy merosini fundamental asosda nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga yetkazish, shuningdek, uni o‘rganish metodikasini ishlab chiqib, amalda qo‘llash chora-tadbirlarini amalga oshirish, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish masalalariga asosiy vazifa sifatiga qarash muhimligi ko’zda tutiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali asosda yanada takomillashtirish, jamiyatda, jumladan, uning har bir bo’g’inida, ya’ni, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvini rivojlantirish, hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish hamda mazkur jarayonning huquqiy-normativ, ilmiy-pedagogik, texnik, texnologik jihatlarini takomillashtirish imkoniyatlari kengaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60- son, 2019-yil 8 - oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy, axloqiy va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni o‘qitish va tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3907-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4884-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 997-sonli qarorlari hamda tarbiyaviy faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish vazifalari pedagogik faoliyat uchun muayyan darajada asos bo’lib hisoblanadi.

Muhokama.

Bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash muammosini o‘rganish jarayonida “yurisprudensiya”, “huquqshunoslik”, “tarbiyaviy faoliyat”, “kasbiy tayyorgarlik”, “kasbiy pedagogik tayyorgarlik”, “axloq”, “burchni anglash”, “huquq”, “mas’uliyat” tushunchalarini mazmunan o’rganish va ular mohiyatini ochib berishga e’tibor qaratildi.

Ma'lumki, "yurisprudensiya" – huquqiy ijtimoiy normalarning alohida tizimi sifatida, huquqning alohida tarmoqlarini, davlat va huquq tarixini, davlat va umuman siyosiy tizimning faoliyatini o'rganuvchi fan. Huquqshunoslik – eng qadimgi ijtimoiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning tarixan vujudga kelishi huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Yunon falsafasida huquqshunoslikning eng muhim nazariy muammolari o'rtaga tashlangan bo'lsa, rim huquqshunoslari huquqiy tushuncha va tuzilmalarni ishlab chiqqan edilar, bu tushuncha va tuzilmalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Jamiyat hayotida o'z burchini anglaydigan va o'ziga xos mas'uliyatni his etish masalasi muhim hisoblanadi. "burchni anglash" tushunchasi – shaxsning o'zi mansub bo'lgan jamoa, jamiyat oldida muayyan talablar asosida zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni ongli ravishda his etish. Burch ta'lim-tarbiya jarayonida tarkib topadi. Burch shaxsning o'z-o'ziga talabchanligi tarzida namoyon bo'ladi.

"Burch hissi"- shaxs axloqining asosiy mezonlaridan biri. Burch - shaxsning axloqiy faoliyatini ifodalovchi mas'uliyatlilik, onglilik, vijdonlilik kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim jarayonida oila bilan hamkorlikda talabalarda burch hissini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega.

"Axloq"-xulq so'zining ko'plik shakli, kishilar orasida munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos qoidalari majmui. U ma'naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha hamdir. Kishi axloqidagi yaxshi odatlar insonning o'z manfaatini jamiyat manfaatlariga mos-lashtirishga, ayrim o'rinlarda jamiyat manfaatlari yo'lida o'z hayotiy maqsadlari, manfaatlarini o'zgar-tirishga imkon beradi. Pedagogik jarayonlarda ularni shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa.

Huquq muammolari hozirgi demokratik jamiyatda va huquqiy davlatda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi, huquqshunoslik tuzilish jihatdan bir qancha tarmoqlarga bo'lingan: davlat huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, xalqaro huquq, davlat va huquq tarixi, siyosiy bilimlar tarixi. davlat va huquq mohiyatini, huquqshunoslikning boshqa umumiy masalalarini o'rganuvchi umumiy davlat va huquq nazariyasi fani alohida o'rinda turadi. Huquqshunoslik umumiy nazariy fangina bo'lib qolmay, shu bilan birga amaliy fan ham hisoblanadi. Sud tibbiyoti, sud psixiatriyasi, kriminalistika, kriminologiya, yuridik psixologiya va boshqa yurisprudensiyaning amaliy turi hisoblanadi.

Huquqshunoslik fani inson dunyoqarashi, uning huquq va davlat to'g'risidagi tasavvuri, tushuncha va bilimlari shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Huquqshunoslikning g'oyaviy ta'siri insonning huquqiy madaniyati rivojlanishiga, huquq talablarini qadrlab, unga rioya etishiga yordam qiladi. Bu bilan jamiyatda huquqiy axloq va huquq-tartibot qaror topishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samiyeva, Sh. X., Aslanova, N. X. O'quvchilarda matnni o'qish va uni tushunish darajasini shakllantirish. Monografiya. Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2023. B-6
2. Pedagogika. Ensiklopediya 1-qism. 97-b
3. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A. Umaraliyeva "Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari". "O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI" nashriyoti, T.:2014
4. https://lex.uz/docs
5. https://uz.wikipedia.org

196	**Sadatova Nodira Musurmonovna** Voyaga yetmagan o‘smirlar hulq-atvoridagi psixologik o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillar
200	**Eshboyev Shoxruz Xon Farxodovich** Nizolar dinamikasi va rivojlanish fazalari
203	**Adilova Shoxida To‘ychiyevna** Shaxs xulq-atvorida suitsidga moyillikni aniqlashning psixologik xususiyatlari
209	**Кадыров Камолиддин Батырович, Каланходжаева Камила Ботирходжаевна** Исследование взаимосвязи эмоционального интеллекта у сту-дентов с соотношением сиг-нальных систем
214	**Turaxanov Ummatali Davlatovich** O‘z-o‘zini identifikasiya qilishning ijtimoiy-psixologik shartlari
219	**Сулетбаева Элла Серикбаевна** Этнопсихологические особенности семьи: сравнительный анализ
223	**Останов Шухрат Шарифович** Развития креативности у подростков
	13.00.00 – PEDAGOGIKA
227	**Mambetiyarov Nauriz Saparbayevich** Yosh futbolchilarga himoyaviy texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan uslublarning o’ziga xos xususiyatlari
231	**Erejepov Islam Yusupovich** Jismoniy madaniyat va ommaviy sport harakatini tashkil qilish va boshqarish xususiyatlari
235	**Nurmatov Nurhayot Nurziyot og`li** Pedagoglarda frustratsion tolerantlikning psixologik xususiyatlari
239	**Jumaniyazova Tamara Adambayevna** O‘quvchilarga gimnastika mashqlarini o‘rgatishning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari
242	**Allambergenova Baxargul Xudaybergenovna** Talabalarga chet tili o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish – ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida
246	**Shaniyazov Rashid Janabayevich** Sport maktabi o’quvchilarida o’zini - o’zi boshqarishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari
249	**Астанкулова Дильнур Фуркат кизи** Педагогико-психологические особенности спортсменов, занимающихся художественной гимнастикой
253	**Оталиева Аделья Рахметовна** Повышение технико-тактической подготовки юных каратистов инновационными мето-дами
256	**Nurmedov Nurmuxammed Axmed o’g’li** Ta’lim tarbiya jarayonida milliy va harakatli o‘yinlardan foydalanishning zamonaviy usullari
260	**Kamolov Shavkatjon Xadjiyevich** Musiqa fani o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari
264	**Xudoyarova Ziyoda Maratovna** Talabalarda o’zini o’zi rivojlantirishning pedogagik psixologik mexanizmlarini
268	**Mirzobobur Bahodirovich Qambarov** Pedagogik tizimda tarbiyaviy faoliyatning huquqiy masalalari
271	**Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida